

**TEZKOR -QIDIRUV FAOLIYATINI AMALGA OSHIRUVCHI ORGANLARGA
KO'MAKLASHAYOTGAN SHAXSLARNI HAMDA ULARNING OILA A'ZOLARINI
IJTIMOIY-HUQUQIY JIHATDAN HIMOYA QILISH HAMDA HOZIRGI KUNDA
TEZKOR-QIDIRIV FAOLIYATIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHATLAR
NING HUQUQIY AHAMIYATI.**

Salohiddinova Farangiz Abror qizi

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-bosqich kursanti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tezkor-qidiruv faoliyati nima? U qanday vazifalarni bajaradi, ularga ko'maklashayotgan shaxslarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilish va huquqiy asoslari, Ijtimoiy himoya tushunchasi haqida, hamda hozirgi kunda tezkor-qidiruv faoliyatida amalga oshirilayotgan islohatlar hamda ularning ahamiyati batafsil yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *TQF, ijtimoiy himoya, O'RBQ-344-son, moliyalashtirish.*

Annotation: *This article explains what search activity is? what tasks does it perform? social legal protection of the persons helping them and legal basis, about the concept of social protection, the reforms implemented in the current activity and their importance are covered in detail.*

Keywords: *TQF, Society Protection, ORQ-344, Financing.*

Aynan istiqloq sharofati bilan ichki ishlar organlari xalqimizning himoyachisi va ko'makchisiga, mamlakatimizdagi tinchlik va osoyishtalikni, jamoat tartibini va fuqarolar xavfsizligini himoya qilishning ishonchli garoviga aylandi. Ayniqsa so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohatlar ushbu tizimni tubdan takomillashtirishga va professional tuzilmaga aylantirishga imkon bermoqda. Yurtboshimiz SH.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek *"Davlat tayanadigan asosiy ustun bu- Qonun bo'lsa, uni amalda namayon etadigan eng samarali tizim bu- Ichki Ishlar Organlari tizimidir"*.

Xususan, jinoyat alomatlar jinoyat sodir etgan shaxslarni topish, jinoyat ishi yuzasidan dalil tariqasida foydalanish mumkin bo'lgan ma'lumotlarni aniqlash maqsadida ilmiy texnika vositalaridan foydalangan holda, zarur choralar ko'rish yuzasidan tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar tomonidan amalga oshirilishida tezkor-qidiruv faoliyati natijalari muhim o'rin tutadi. Shu o'rinda tezkor-qidiruv faoliyati nima? va uning vazifalari nimalardan iborat- degan savolga javob berib o'tamiz.



Tezkor- qidiruv faoliyati- Huquqni muhofaza qilish faoliyati shakllaridan biri hisoblanadi. Qonun bilan maxsus vakolat berilgan davlat organlarining tezkor bo'linmalari tomonidan tezkor-qidiruv tadbirlari o'tkazish orqali amalga oshiriladigan faoliyat turidir. Hamda bu qonun chiqaruvchi tomonidan maxsus vakolat berilgan subektlarning qonun hujjatlariga asoslangan,shuningdek tezkor qidiruv harakatlarini bajarish,inson va jamiyatni jinoiy tajovuzlardan himoya qilish maqsadida,ushbu maqsadga boshqa qonuniy vositalarni qo'llash yo'li bilan erishish amalda qiyinchilik tug'dirgan yoki mumkin bo'lmagan holda amalga oshiriladigan ijtimoiy foydali davlat yuridik faoliyatining turi hamdir. Shu jumladan 2012-yil 25-dekabrda qabul qilingan "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-344-son- Qonun-Tezkor-qidiruv faoliyati asoslarini tartibga soluvchi huquqiy hujjat hisoblanadi.Xususan Qonunda tezkor-qidiruv faoliyati tushunchasining mazmuni yoritilgan,uning vazifalari va prinsiplari,TQFni o'tkazish asoslari,TQF natijalarini rasmiylashtirish va ulardan foydalanish tartibi,Tezkor qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar hamda ularning huquq va majburiyatlari yoritilgan.Hamda qonunda teakor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga ko'maklashadigan fuqarolarni huquqiy ijtimoiy himoya qilish masalalari ko'rsatilgan.Shundan kelib chiqib aynan biz qonunning 4-bobi ya'ni tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar xodimlarini va bunday faoliaytni amalga oshirishga ko'maklashayotgan shaxslarni, shuningdek ularning oila a'zolarini ijtimoiy-huquqiy jihardan himoya qilish masalasiga to'xtalib o'tamiz.Aynan qonunning 22-23-moddalari. TQFni amalga oshiruvchi organlarga ko'maklashayotgan shaxslarni hamda ularning oila a'zolarini ijtimoiy jihatdan himoya qilishda "O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Preizident farmoni ham alohida ahamiyat kasb etadi.Jumladan 2022-2024-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsadlardan kelib chiqib hamda ijtimoiy himoya sohasida tizimli islohatlarni izchil davom ettirish va yanada takomillashtirish,aholini ijtimoiy himoya qilish huquqlarini ta'minlash,davlat ijtimoiy yordam va xizmatlarni ko'rsatishda samarali idoralararo muvofiqlashtiruvchi tizimni yaratish maqsadida bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirildi.Va bunda aholini ijtimoiy himoya qilish borasida yangicha tizim yaratildi.

Shu o'rinda bevosita" Ijtimoiy himoya nima uzi ?"-degan savol tug'ilishi mumkin.Ijtimoiy himoyaning keng ma'noda-mamlakat aholisini ijtimoy va moddiy muhofaza qilishni ta'minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy iqtisodiy,ijtimoiy chora-tadbirlar majmui.Uning asosiy maqsadi jamiyat tomonidan insonga munosib hayot darajasini van son tarqqiyotini ta'minlashga yordam berishdan iboratdir.Rivojlangan demokratik jamiyatda ijtimoiy himoyani vazifalarini



bajarisni davlar o'z zimmasiga oladi. Binobarin, Respublikamizda ham aholini ijtimoiy himoya qilish iqtisodiy islohatlar dasturidagi ustuvor yo'nalshlardan biriga, ya'ni islohatlarning hamma bosqichlarida ustuvor hisoblanadigan vazifalar qatoriga kiradi. Jumladan respublikada ijtimoiy himoyaning huquqiy muhiti yaratilib, unga qonuniy asos solindi. Ijtimoiy himoya tamoyillari O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida kafolatlanib, qabul qilingan qonunlarda o'z aksini topdi. O'zbekistonda aholisini ijtimoiy himoya qilish iqtisodiy islohatlar dasturidagi uzluksiz ustuvor yo'nalishlardan biriga, ya'ni islohatlarning hamma bosqichlarida ustuvor ko'rsatilgan vazifalar qatoriga kiradi.

Aynan qonunda ham (Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risidagi) TQF amalga oshiruvchi organlarning xodimlari davlat himoyasida bo'lishi va uni amalga oshiruvchi organlar xodimlariga qonunchilikka muvofiq ijtimoiy-huquqiy jihatdan himoya qilinishi kafolatlari, qonunchilikka muvofiq ijtimoiy imtiyozlar berilishi ko'rsatilgan. Shuningdek, TQF amalga oshiruvchi organ xodimlari va ularning oila a'zolarining xavfsizligini ta'minlash va ularning mol-mulkini himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda maxsus chora-tadbirlar nazarda tutilgan. Yuqorida aytib o'tilgan tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirishga ko'maklashayotgan shaxslar ham davlat himoyasida bo'ladi. Ular tezkor-qidiruv faoliyati uchun ajratilgan mablag'lar hisobidan belgilangan miqdorlarda taqdirlanish huquqiga ega hisoblanadi. Darhaqiqat, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirishga ko'maklashayotgan shaxs tezkor-qidiruv tadbirlari o'tkazishda ishtirok etish bilan bog'liq holda mayib bo'lgan, bu uning mehnat qilish qobiliyatiga hamda nogironlikka olib kelgan taqdirda, ushbu shaxsga qonunchilikka muvofiq bir yo'la beriladigan nafaqa to'lanadi hamda nogironlik pensiyasi tayinlanadi. Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirishga ko'maklashayotgan shaxs tezkor-qidiruv tadbirlari o'tkazishda ishtirok etish bilan bog'liq holda halok bo'lgan taqdirda marhumning oila a'zolariga va qarmog'ida bo'lgan shaxslarga qonunchilikka muvofiq bir yo'la beriladigan nafaqa to'lanadi hamda boquvchisini yo'qotganlik munosabati bilan pensiya tayinlanadi. Bu ham albatta ijtimoiy himoyaning o'ziga hos jihatidir. Jumladan, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirishga ko'maklashayotgan, uyushgan jinoiy guruh, jinoiy uyushma orasiga ularni fosh qilish maqsadida kiritilgan shaxs qonunda belgilangan tartibda qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar mavjud bo'lgan taqdirda, qonunga xilof qilmishlari uchun javobgarlikdan ozod etiladi. Shaxs, jamiyat, davlat tushunchalarida hamisha shaxs birinchi o'ringa qo'yilganidek, bu yerda ham shaxs ijtimoiy manfaatlari, huquq va erkinliklari, imtiyozlari birinchi ya'ni yuqori pag'onaga qo'yiladi. Faoliyatning asosiy vazifasi ham inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy



manfaatlari, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini himoya qilinishini, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatlarning oldini olish, ularni aniqlash, ularga barham berish va ularni fosh etish, shuningdek jinoyatlarni tayyorlash va sodir etishga daxldor shaxslarni aniqlash va topish, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligiga tahdid solayotgan shaxslar, hodisalar, harakatlar (harakatsizlik) haqida axborot to'plash hisoblanadi.

Muhtaram Prezidentimiz SH.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida *"Davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga baho berishda qonuniylikni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklari qanday himoya qilinayotgani biz uchun eng asosiy mezon bo'lishi shart. Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak"*-deya ta'kidlagan edi. SHu xususda kelib chiqib, ichki ishlar organlarini professional tuzilmaga aylatirish bu avvalo mamlakat tinchligi va ravnaqi yo'lida muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Bu tizimni yanada rivojlantirish uchun zamonaviy ilmiy-texnika vositalarini, yutuqlarini sohaga jalb etish lozim bu esa uning samaradorligini, ish unumdorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, amalga oshirilgan barcha islohatlar, yangi va amldagi barcha huquq normalari, qonun va qonun osti hujjatlar zamirida inson omili birinchi o'rinni egallagan. Albatta bularning barchasi yurt tinchligi, xalq faravonligi, er-yurt osoyishtaligiga, Vatan ravnaqiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1. O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonun (2012-yil 25 dekabr O'RBQ 344-son)*
- 2. "O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident farmoni (25.07.2023- yil)*
- 3. 2022-2024-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi*
- 4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PF-6196-son farmoni 1-ILOVA*

